


## HAMKORLIK AN'ANALARI



Odamlar azaldan muammolarni birgalikda hal qilishga intilganlar. Agar ular qiyinchiliklarni alohida-alohida hal qilishsa, insoniyat hech qachon hozirgidek yutuqlarga erisha olmagan bo'lar edi.



Hamkorlik va o'zaro yordam – xalqimizning azaliy an'analaridir. Bu an'ana mahallada, ayniqsa, yaqqol ko'rindi. Odamlar tur mush sharoitini yaxshilash uchun birlashadi, kundalik masalalarni birgalikda hal qilib, mahalladagi tartib-intizomni nazorat qiladi. Qo'shnilar hashar qilib, ko'chat ekadilar, hududni tozalab, ozoda saqlashga harakat qiladilar. Zarurat bo'lsa, mablag' to'plab, bolalar uchun o'yingoh yoki sport maydonchalarini quradilar, mahalla ko'chalarini tozalaydilar. Biror tabiiy ofat ro'y bersa, uning oqibatlarini yo'qotish uchun bir yoqadan bosh chiqaradilar. Har qanday masala bilan mahalla raisiga bemalol murojaat qilish mumkin. Mahalladoshlar yig'ilib, to'y-tomosha, bayramlarni ham birga nishonlaydilar.





Inson bir o'zi uddalay oladigan ishlar ham bor. Bunday ishlarni har kim o'zi bajarishi kerak. Lekin ba'zi ishlarda natija ishtirokchilar soniga bog'liq. Masalan, bolalar meva tersa, hosilning ko'p-ozligi har bir bolaning qancha meva terganiga bog'liq bo'ladi. Ammo shunday ishlar ham borki, ularni aslo yolg'iz bajarib bo'lmaydi. Masalan, kishi baland to'siqdan yolg'iz oshib o'tishi qiyin yoki ariq ustiga bir o'zi to'sin tashlay olmaydi. Uy-joyni yolg'iz qurish haqida-ku, gapirmasa ham bo'ladi!



1. Siz qaysi ishlarni bir o'zingiz qilishni yaxshi ko'rasiz?
2. Qaysi ishlarni ko'pchilik bo'lib bajargan yaxshi? Nima uchun?
3. Eng kuchli odam ham bir o'zi qila olmaydigan ishlarga misollar keltira olasizmi?





Akmal, o'zaro hamkorlik va yordamning farqi bormi?



Kimdir yordam so'rasha, ko'maklashamiz.  
Mana shu – yordam.



To'g'ri. Kimdir og'ir ahvolga tushib qolsa, yordamga muhtoj bo'lib qolsa ham unga ko'maklashamiz.



O'ylashimcha, hamkorlik bir ishni bir necha kishi birgalashib bajarishidir.



Maktabda sinfimizdagi bolalar bilan birga spektakl tayyorlagan edik. Esingdami?



Ha, esimda! Mana shu hamkorlik deyiladi.





Hamkorlik bir vazifani bajarishda bir nechta odamlarning birgalikda harakat qilishidir. Ular do'st bo'lishlari shart emas, lekin umumiy maqsad ostida birlashishadi va maqsadga erishishda ularning har birining hissasi muhim.



Jamoa bo'lib ishlash nima degani? "Jamoa" so'zini eshitib, darrov sport o'yinlari yodingizga tushdimi?

Futbol jamoasida darvozabon, himoyachilar, hujumchilar bo'ladi. Futbol maydonida har bir o'yinchining o'z o'rni, vazifasi, mas'uliyati bor. Kim qaysi ishga qobiliyatli bo'lsa, jamoada o'sha ishni qilishi kerak.






Jamoada ishlashni bolalikdan o'rganish kerak. Masalan, buni jamoa bo'lib o'ynaladigan o'yinlarda, mакtabdagi tadbirlarda o'rganish mumkin. Darsda guruhlarga bo'linib, biror mavzuni muhokama qilsangiz yoki biror vazifani ko'pchilik bo'lib bajarsangiz, bu ham jamoaviy ish bo'ladi.



1. Qanday jamoaviy sport turlarini bilasiz?
2. O'rtoqlaringiz bilan qaysi jamoaviy o'yinlarni o'ynaysiz?
3. Turli sohalardagi jamoaviy ishlarga misollar keltiring.



### Gaplarni to'ldiring.

Men do'stlarim bilan ... .  
Endi men jamoa ... bilib oldim.  
Men ...ni xohlayman.



### Ishbilarmonlik sifatlaringizni rivojlantiring:

- tartibli, hushyor bo'ling;
- ishni vijdonan bajaring;
- sabrli bo'ling, yaxshilikka intiling;
- shaxsiy fikringiz bo'lsin, lekin boshqalarning fikrini ham hurmat qiling.



Guruhlarga bo'linib, do'stlik, o'zaro yordam, hamkorlik haqida she'r yoki maqollar toping. Keyin ularga mos suratlar toping yoki chizing.